

Toshkent shahar adliya boshqarmasi hay'at
majlisining 2023-yil 31-yanvardagi
1/23-son bayoniga
2-ILOVA

**Toshkent shahar tuman adliya bo'limlarining 2023-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan
ISH REJASI***

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1.	Davlat xizmatlari markazi, FHDY bo'limi hamda Yuridik xizmat ko'rsatish markazi faoliyatini monitoring qilib borish.	Har oyda bir marotaba	Tuman adliya bo'limi boshlig'i	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-89-son farmoni	Davlat xizmatlari markazi, FHDY bo'limi hamda Yuridik xizmat ko'rsatish markazi faoliyatida qonuniylikni ta'minlash.	1
II. NORMA IJODKORLIGIDA YAGONA DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH HAMDA TARTIBGA SOLISH TA'SIRINI BAHOLASH SOHASIDA						
2.	Toshkent shahar hokimligi va tuman hokimliklarining normativ tusdagi qarorlarini xatlovdan o'tkazish hamda o'z ahamiyatini yo'qotgan normativlarni bekor qilish, shu jumladan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o'rinlarining eng kam soni belgilash haqidagi qarorlarning qabul qilinishi amaliyotini o'rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralarini ko'rish.	aprel	Tuman adliya bo'limlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga oid tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son qarori.	O'z ahamiyatini yo'qotgan normativlarni bekor qilish hamda normativ tusdagi qarorlar sonini kamaytirish	2
III. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH, YURIDIK TA'LIM VA SUD-EKSPERTIZA SOHASIDA						
3.	Idoralararo kollegial organlar faoliyati samaradorligini tahlil qilish hamda natijasi bo'yicha ushbu organlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan asoslantirilgan	yanvar	Tuman adliya bo'limlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 10-bandi bo'yicha.	Idoralararo kollegial organlar faoliyati samaradorligini oshirish.	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	takliflarni ishlab chiqish va Adliya vazirligiga kiritish.					
4.	<p>Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi 285-son qarori bilan tasdiqlangan Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi Nizom talablari ijrosini o'rganish.</p> <p>Natijasi bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish va Adliya vazirligiga kiritish.</p>	yanvar-fevral	Tuman adliya bo'limlari	<p>Mazkur sohada oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan. Shuningdek, ushbu yo'nalishda adliya organlariga fuqarolarning huquqlari buzilayotganligi yuzasidan ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda.</p>	<p>Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berilishida qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlanadi hamda amaliyotdagi muammolar bartaraf etiladi.</p>	3
5.	<p>Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmasining tuman tuzilmalari tomonidan:</p> <p>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi;</p> <p>huquqni qo'llash (shu jumladan, inson huquqlari va intellektual mulk sohasida) amaliyoti;</p> <p>ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati;</p> <p>tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;</p> <p>yuridik xizmat faoliyatini;</p> <p>huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish.</p> <p>Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.</p>	fevral	Tuman adliya bo'limlari	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan 2020-2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish maqsadli ko'rsatkichlarning 6-bandi ijrosini ta'minlash.</p>	<p>Oila va xotin-qizlar sohasi faoliyatini o'rganish orqali mazkur sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish.</p>	3
6.	<p>Tuman tibbiyot birlashmalari (tibbiyot muassasalari bundan mustasno) tomonidan:</p> <p>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;</p>	aprel-may	Tuman adliya bo'limlari	<p>Fuqarolar tomonidan adliya organlariga sog'liqni saqlash masalalari yuzasidan ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ushbu sohadagi kamchiliklar va</p>	<p>Sohada inson huquqlarini himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi va jismoniy va yuridik</p>	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	<p>qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi;</p> <p>huquqni qo'llash (shu jumladan, inson huquqlari va intellektual mulk sohasida) amaliyoti;</p> <p>ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati;</p> <p>tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;</p> <p>yuridik xizmat faoliyatini;</p> <p>huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish.</p> <p>Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Vazirlar Mahkamasiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.</p>			<p>muammoli holatlar aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.</p> <p>Shu bilan birgalikda, mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan.</p> <p>Bu esa, ushbu sohani kompleks o'rganishni talab etadi.</p>	<p>shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati, huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash, ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmatlarini ko'rsatish va boshqa holatlar o'rganiladi. Sohadagi kamchilik va muammoli holatlar bartaraf etiladi va tegishli takliflar ishlab chiqiladi. O'rganish natijalari bo'yicha tegishli ta'sir choralari qo'llaniladi.</p>	
7.	<p>Davlat boshqaruvi tizimini funksional tahlil qilgan holda davlat boshqaruv organlarining funksiyalarini nodavlat sektorga o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va Adliya vazirligiga kiritish.</p>	may	Tuman adliya bo'limlari	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan 2020–2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish maqsadli ko'rsatkichlarning 8-bandi ijrosini ta'minlash.</p>	<p>Byudjet yukini kamaytirish hamda xususiy sektorning tadbirkorlik faoliyat turlarini kengaytirish.</p>	3
8.	<p>Hokim yordamchilari faoliyatini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish.</p>	iyun	Tuman adliya bo'limlari	<p>Mazkur sohada o'rganish va monitoring o'tkazilmagan.</p> <p>Shu bilan birga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarda hokim yordamchilari zimmasiga vazifalar yuklatilgan bo'lib, ular faoliyati monitoring qilinmagan.</p>	<p>Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosining ta'minlanishi, hokim yordamchilari faolliyati samaradorligini oshirish.</p>	3
IV. XALQARO HUQUQIY HAMKORLIK, HUQUQIY XIZMAT KO'RSATISHNI TARTIBGA SOLISH, NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR VA HUQUQIY TARG'IBOT SOHASIDA						
9.	<p>“Adliya aralashgach”, “Adliya — bir oy davomida” va “Bir murojaat izidan” nomli lavhalar, reportajlar, videoroliklar tayyorlash va tarqatish.</p>	yanvar-iyun	Tuman adliya bo'limlari	<p>Aholini adliya organlari faoliyati haqida ma'lumotlarni yetarli darajada bilmasliklari ularning Adliya organlari tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan huquqiy yordamlardan to'laonli foydalanmasligiga olib kelmoqda.</p>	<p>Adliya organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida targ'ibot qilish orqali olib borilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyatini misollar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish hamda shaxslarning</p>	4

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
					huquqlarini himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish.	
10.	8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mahallalarda "Biz gender zo'ravonlikka qarshimiz" nomi ostida targ'ibot tadbirlari haftaligini o'tkazish.	mart	Tuman adliya bo'limlari	Bugungi kunda bevosita va bilvosita jinsiy kamsitish holatlari yuzasidan kelib tushayotgan murojaatlar hamda ommaviy axborot vositalarining xabarlarini	Xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilinishini ta'minlash	2
V. DAVLAT XIZMATLARI HAMDA MA'MURIY TARTIB-TAOMILLARNI RIVOJLANTIRISH VA MONITORINGINI YURITISH SOHASIDA						
11.	O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi Toshkent shahar boshqarmasi tuman tuzilmalari tomonidan: davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlarini va topshiriqlarning bajarilishi; huquqni qo'llash (shu jumladan, inson huquqlari va intellektual mulk sohasida) amaliyoti; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyatini; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish.	fevral-mart	Tuman adliya bo'limlari	Mazkur sohada oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi sohasida ruxsat berish hamda davlat xizmatlarini ko'rsatilishi bo'yicha shikoyatlar ko'plab kelib tushmoqda.	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi sohasida ruxsat berish hamda davlat xizmatlarini ko'rsatilishini yetarli darajada nazoratga olish bo'yicha qonuniylikni ta'minlash.	3
12.	Toshkent shahar miqyosida tadbirkorlik subyektlari – yuridik va jismoniy shaxslarni qayta ro'yxatdan o'tkazishda muddat buzish, asossiz rad etish va ortiqcha hujjat talab etish holatlarini monitoring tartibida o'rganish hamda natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash.	mart	Tuman adliya bo'limlari	Davlat xizmatlari markazlari orasida tadbirkorlik subyektlarini qayta ro'yxatdan o'tkazishda qonuniylikni mustahkamlash maqsadida ular faoliyatini doimiy nazorat qilish lozim. Davlat xizmatlari markazlari tomonidan rad etilgan onlayn arizalar o'rganilganda ayrim holatlarda asossiz rad etish holatlari aniqlangan.	Tadbirkorlik subyektlarini qayta ro'yxatdan o'tkazishda qonunbuzilishi holatlari oldi olinadi hamda kamayadi.	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
13.	<p>Davlat xizmatlari markazlari tomonidan Yo'qolgan ashyoning topilmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma olish va Topilmalar, yo'qolgan buyumlar va hujjatlar bo'yicha so'rov yuborish davlat xizmatlarini ko'rsatish holatini o'rganish.</p> <p>Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish</p>	may	Tuman adliya bo'limlari	Mazkur davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida kamchiliklarga yo'l qo'yib kelinmoqda.	Mazkur davlat xizmatlarini ko'rsatishini tartibga solish, qonuniylikni ta'minlash va xodimlar mas'ulligini oshirish	2
VI. INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA						
14.	<p>Kontrafakt asarlar katalogini doimiy yangilab boruvchi elektron shaklli QR-kod orqali ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratish hamda ushbu QR-kodni Toshkent shahrining barcha kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi savdo majmualari va rastalarida joylashtirish.</p>	mart	Tuman adliya bo'limlari	<p>Olib borilgan kuzatuv tadbirlar natijalariga ko'ra kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi savdo majmua va rastalarida sotuvchilar hamda xaridorlarda kontrafakt asar nusxasi deganda noto'g'ri fikr shakllangan bo'lib, ular kontrafakt deganda faqatgina kitob ishlab chiqarish standartlariga javob bermagan kitoblarni tushinishlari ma'lum bo'ldi.</p>	Katalogni joriy etish sotuvchilar hamda xaridorlarga kontrafakt mahsulotlar to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratib, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.	4
15.	<p>Kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurash doirasida tadbirkorlik subyektlariga kontrafakt mahsulotlar katalogini (<i>oziq-ovqat, tamaki, alkogol mahsulotlari va dori vositalarining kataloglarini</i>) tarqatish maqsadida profilaktik tadbirlar tashkil qilish</p>	may-iyun	Tuman adliya bo'limlari	<p>Keyingi vaqtlarda bozorlarda va savdo do'konlarida oziq-ovqat, tamaki, alkogol mahsulotlarining, shuningdek, dorixonalarda dori vositalarining kontrafakt nusxalari ko'payib borayotganligi sababali mazkur kontrafakt tovarlarning asl mahsulotlardan farqlashga yordam beradigan kontrafakt mahsulotlar kataloglarining yetishmasligidan dalolat beradi.</p> <p>Ma'lumotlarga ko'ra, birgina kontrafakt dori-darmonlar har yili jahonda qariyb 1 million insonning umriga zomin bo'lmoqda. Kontrafakt mahsulotlar inson sog'lig'iga zararli hisoblanib, mazkur dori tarkibida faol moddalar umuman bo'lmasligi ham mumkin, shu bois uni qabul qilgan shaxsning ahvoli yaxshilaanmasligi balki kasallikni yengishga qarshi vosita ichilmagani sababli</p>	Tadbirkorlik subyektlarini kontrafakt mahsulotlardan xabardor qilish va ularning sotilishiga chek qo'yish.	4

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
				<p>sog'ligi jiddiy xavf ostida qolishiga sabab bo'ladi.</p> <p>Bundan tashqari, kontrafakt mahsulot savdosi mamlakat iqtisodiyotiga zarar keltirib, nohalol raqobat oqibatida yirik tadbirkorlarning tovar aylanmasi keskin tushib ketishiga va ishchilarning oyligi hamda davlatga soliq to'lash qobiliyatini asta-sekin yo'qotishiga olib keladi.</p>		
16.	Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali mualliflik va turdosh huquqlar sohasida aholi uchun foydali huquqiy axborotlarni qiziqarli va tezkor yetkazish bo'yicha huquqiy targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish.	iyun	Tuman adliya bo'limlari	Keyingi vaqtlarda aholi tomonidan axborot asosan Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilinayotganligi sababli mazkur vositalar orqali huquqiy targ'ibot tadbirlarini ko'paytirish zarurati mavjud.	Aholining mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish.	4

* Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar Toshkent shahar adliya boshqarmasining mavjud resurslari, moliyaviy mablag'lari va moddiy-tekni vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (raqami) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.

***Tuman adliya bo'limlari ish reja ijrosining bandlari ijrosini ta'minlashda tegishli tarkibiy tuzilmalar xodimlarini jalb qilishi mumkin.

Toshkent shahar tuman adliya bo'limlarining 2023-yil I va II choraklarga
(I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasiga ilova

Ish rejada belgilangan tadbirlarni baholash yo'nalishlari va mezonlari jadvali

Yo'nalish raqami	Baholanayotgan yo'nalish nomi	Yo'nalishning baholash mezonlari	Mezonni belgilash uchun taqqoslanuvchi ko'rsatkichlar	Mezon bo'yicha maksimal bali	Yo'nalish bali
1.	Adliya organlari va muassasalari faoliyatini tahlil qilish	Faoliyati baholanganligi	<i>Adliya organlari soni bilan baholangan Adliya organlar soni</i>	50	100
		Tizimli tahlil amalga oshirilganligi	<i>tahlil soni bilan tizimli amalga oshirilgan tahlil soni</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
2.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi, tahliliy ma'lumot va boshqa takliflar	Taklifning asoslanganligi	<i>loyihada nazarda tutilgan jami qismlar bilan loyihaning NHH va faktlar bilan asoslangan qismlari</i>	25	100
		Taklifda muammoni tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi	<i>Loyiha soni bilan loyihada tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi</i>	25	
		Taklif bo'yicha asoslantirishda taklif amaliyotga kiritilgandan so'ng kutilayotgan ijobiy natija aks etganligi	<i>Loyiha soni bilan loyihada kutilayotgan ijobiy natija (foiz, miqdor va boshqalarda) nazarda tutilganligi</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
3.	Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish (tekshirish, o'rganish, monitoring va boshqalar) natijasida ta'sir choralari ko'rish	O'rganish qamrovi	<i>savolnomadagi band soni bilan ularning har bir bo'yicha asoslar soni</i>	20	100
		Qonunbuzilishning asoslanganligi	<i>qonunbuzilishlar soni bilan NHH va faktlarga asoslangan qonunbuzilishlar soni</i>	20	
		Qonunbuzilishni bartaraf qilinganligi	<i>bartaraf qilinishi lozim bo'lgan qonunbuzilishlar soni bilan ularning bartaraf qilinganlari soni</i>	20	
		Javobgarlik choralari qo'llanilishi	<i>Javobgarlik tortilishi lozim bo'lgan shaxslar soni bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar soni</i>	20	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	20	
4.	Ko'rsatkichlar va vazifalar bajarilganligi	Ko'rsatkichlar-vazifalar bajarilganligi	<i>Normativ va ichki hujjatlar hamda rejadagi ko'rsatkichlar bilan bajarilgan ko'rsatkichlar miqdori</i>	75	100
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	